

UMURTQASIZ(INVERTEBRATA) HAYVONLAR XILLMA –XILLIGI TURLI MUHIT SHAROITDA MOSLANISHI

Rayimjonova Shohida Odinajon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo`nalishi talabasi

Nizomova Bashorotxon Begaliyevna

Ilmiy Rahbar:

Email:@rayimjonovaumida478@.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15581902>

Annotatsiya:ushbu tezisd a umurtqasiz hayvonlar xilma- xilligi, ularning bir-biridan farq qiladigan o`ziga xos xususiyatlari, turli xil yashash sharoitiga moslashish xususiyatlari va ularga abiyotik omillarni ta`siri yoritildi.

Аннотация: этот тезис охватывал разнообразие неволтенов, их отличительные особенности, различные условия жизни и последствия факторов, связанных с ними.

Annotation: This thesis has covered the diversity of non-voltains, their distinctive features, different living conditions, and the effects of abidty factors against them.

**Kalit so`zlar:** umurtqasizlar (Invertebrata), parazitlar, ko`p hujayralilar, bir hujayralilar, yashash muhiti, to`qima, organ, organism.

Ключевые слова: одноразовые паразиты, большие клетки, отдельные клетки, среда обитания, тексты, тела, организм.

Keywords: Unity-parasites, large cells, single cells, habitats, textualls, bodies, organism.

Umurtqasiz hayvonlar umurtqa pog'onasi bo'lmasligi bilan bir qatorda yumshoq tanaga ega, chunki ularda qo'llab-quvvatlash uchun ichki skelet mavjud emas. Umurtqasiz hayvonlar xillma –xilligi ularni bir hujayrali va ko`p hujayralilarga ajratish orqali ko`rishimiz mumkin. Bir hujayratilar mustaqil hayot kechiradigan organizmlar bo'lib, ular modda almashinish, harakatlanish, ta'sirlanish, ko'payish va tirik organizmlar uchun xos bo'lgan boshqa barcha xususiyatlarga ega. Bunday funksiyalarni hujayradagi maxsus organoidlar bajaradi. Lekin bir hujayralilarning organoidlari hujayraning bir qismi bo'lishi bilan ko'p hujayralilar organlaridan farq qiladi.

Ko`p hujayralilar tanasi ko`p sonli hujayralardan tashkil topgan. Hujayralar tuzilishi va fuksiyasiga binoan bir- biridan farq qiladi. Masalan muskul hujayrasi qisqarish xususiyatiga ega bo'lib, harakatlanish, nerv hujayralari ta'sirni sezish va unga javob berish vazifasini bajaradi. Ko`p hujayralilar tana tuzilishi kelib chiqishiga ko`ra o`xshash bo'lgan hujayralari birgalikda to`qimani, to`qimalar birgalikda organlarni hosil qiladi. Tuban ko`p hujayralilarda organlar rivojlanmagan.

Kishilik jamiyatini ilk davirlaridayoq insonlar hayvonlar hayoti yashash tarzi, ozuqlanish bilan qiziqqanlar. Daslab, hayvonlar haqida yozma ma'lumot miloddan avvalgi V-IV asrlarda adabiyotlarda Yunon, Xitoy, Misr yozma manbalarida keltirilgan. Xitoylik tadqiqotchilar dunyodagi eng qadimiy ko`p hujayrali organizmlarni aniqlashdi. Ularning yoshi 1,56 mlrd yilga teng deb baholangan. Tadqiqot Nature Communications jurnalida chop etildi. Toshga aylangan qoldiqlar Xitoyning Xebey viloyatida uglerod bilan boy bo'lgan fitoleymlarda aniqlangan. Olimlarning ta'kidlashicha, tog'li hududlardan birida mezoproterozoy davriga mansub cho'kindi jins – argillit aniqlangan. Jinsdan olingan organik fragmentlar yaxshi saqlanib qolgan ko`p hujayrali strukturalarni saqlaydi. Eng katta fragmentning uzunligi 30 sm

ni, eni 8 sm ni tashkil qilgan. Olimlarning aytishicha, ko'p hujayrali hayotning uncha turfa bo'lmagani mezoproterozoy dengizlarida kuzatilgan. Olimlarning ta'kidlashicha, ularning kashfiyotigacha ko'p hujayrali hayotning qoldiqlari 600 mln yoshga teng deb baholagandi.

Umurtqasiz hayvonlar haqida gapirganda parazit hayvonlarga alohida to'xtalib o'tish kerak. Parazitizm (yun. parasitos — tekinxo'r, hamtovoq, parazit va ismos — kasallik holati) — (biologiyada) oziqlanish orqali bog'langan va o'zaro moddalar almashinuviga asoslangan, genetik jihatdan turlicha bo'lgan organizmlarning tarixiy shakllangan assotsiatsiyasi. Parazitlarda bir organizm (parazit) ikkinchi organizm (xo'jayin) dan yashash muhiti va oziq, manbai sifatida foydalanadi: ikkala organizm ham o'zaro antagonistik munosabatda bo'ladi. Bundan tashqari, parazit—xo'jayin munosabatlari organizmda immunobiologik reaksiyalarni keltirib chiqaradi. Hayvonot dunyosining deyarli barcha tiplarida parazitlik bilan hayot kechiruvchi turlar mavjud. Ba'zi bir sinflar (so'rg'ichlilar, tasmaimonlar), hatto tiplar (sporalilar, mikrosporidlar, tikanboshlilar) faqat parazit turlarni uz ichiga oladi. Bo'g'imoyoqlilar tipida parazitlar hasharotlar va o'rgimchaksimonlar sinfi vakillari orasida ko'p uchraydi. Umuman Yer yuzida mavjud bo'lgan hayvonlar turining 60—65 mingga (4—5%) parazit hayot kechiradi. "P." terminining kelib chiqishi Yunonistonda, Perikl davrida (miloddan avvalgi 5-asr) mavjud qonunga asosan, ko'zga ko'ringan davlat arboblari keksalik yoshida davlat qaramog'iga o'tishgan. Ular uchun qurilgan maxsus pansionlar arasitariya, u yerda yashovchilar esa parazitlar deb atalgan. Rim imperiyasi davrida parazit so'zi o'zgalar hisobiga yashovchi ma'nosini anglatib, hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Bu so'z biol., veterinariya va tibbiyotda ham xuddi shu ma'noda kirib kelgan bo'lib, boshqa organizm (xo'jayin) to'qimalari yoki hazm qilgan oziq moddalar bilan oziqlanadigan, uning ichki organlari yoki tana yuzasida vaqtincha yoki doimiy yashaydigan organizmni anglatadi. Rus olimi R. S. Shulsning fikricha, P.ning 1- mezonini uning yashash joyi; 2- oziqlanish usuli (metabolitik bog'liqligi) va 3- xo'jayin organizmiga patogen ta'siridan iborat. I. I. Mechnikov parazitizmni boshqa organizmlar hisobiga yashovchi va oziqlanuvchi jonivorlar deb ta'riflagan. P. bilan bog'lik hodisalar odam va hayvonlarda ancha batafsil o'rganilgan bo'lishiga karamay, uning kelib chiqishi va shakllanishi masalalarining ko'p jihatlari hozirgacha ma'lum emas. Bu avvalo hayvonlar evolyusiyasi bilan bog'liq.

Rus olimi V. A. Dogelning fikricha, erkin yashovchi umurtqasiz hayvonlarning sistalari, tuxumlari yoki lichinkalari tasodifan ovqat hazm qilish organlariga tushib qolib, u yerda rivojlanishni davom ettirishi natijasida endoparazitlarga aylanib qolgan. Ko'pchilik bir hujayralilar va nema-todalar shu yo'l bilan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Qon parazitlari P.ga yuksak darajada moslashgan bo'lib, dastlab ular ichakda parazitlik qilgan, keyinchalik turli yo'llar bilan qonga o'tib, u yerda yashashga muvofiklashgan bo'lishi mumkin. Parazitlarning hayot sikli va tarqalishini o'rganish ularga qarshi kurash va, ayniqsa, kasallik-darning oldini olishda juda muhim. Bunda parazitlar, parazit tashuvchi va oraliq xo'jayinlar dorilar yordamida yo'qotiladi. Parazit (zararkunanda) o'simliklarga qarshi biologik kurashdan (mas, parda qanotli hasharotlar — yaydoqchilardan) keng foydalaniladi.

Bir hujayrali yoki protozoa - tanasi morfologik jihatdan bitta hujayraga mos keladigan hayvonlar, shu bilan birga barcha o'ziga xos funktsiyalarga ega bo'lgan mustaqil butun organizmdir. Protozoa turlarining umumiy soni 30 mingdan oshadi. Odam va hayvonlarda uchraydigan bir hujayralilar: bezgak, tripanosoma, ichburug' amyobasi, leyshmaniya, quyon koksidiyasi, trixomonadalar, toksoplazmalar, sarkosporidiyalar, piroplazmidlar,

miksosporidiyalalar, ixtioftirius. Bu parazitlarni tarqalishini, ko'payishini oldini olish, bu parazitlar yuqtirgan kasalliklarni oldini olish va davolash choralarini ishlab chiqish, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish, odamlar orasida bu parazitlar keltirib chiqaradigan kasalliklarni kamaytirish.

"Yashash joy" so'zi taxminan 1755-yildan beri qo'llanilib kelinmoqda (lotincha yashash), ega bo'lmoq yoki tutmoq so'zlaridan kelib chiqqan. Yashash joyini organizmning tabiiy muhiti, uning yashashi va o'sishi tabiiy bo'lgan joy turi sifatida aniqlash mumkin. U biotopga o'xshash ma'noga ega; o'simliklar va hayvonlarning ma'lum bir jamiyati bilan bog'liq bo'lgan yagona ekologik sharoit maydoni hisoblanadi. irik organizmlarning tarqalishiga ta'sir qiluvchi asosiy ekologik omillar harorat, namlik, iqlim, tuproq va yorug'lik intensivligi, shuningdek, organizmning uni ushlab turishi uchun zarur bo'lgan barcha talablarning mavjudligi yoki mavjud bo'lmasligi. Umuman olganda, hayvonlar jamoalari o'simliklar jamoalarining o'ziga xos turlariga tayanadi. Yer yuzida hayvonlarning 2 mln ga yaqin turi tarqalgan. Quruqlik, havo, tuproq, suv havzalari hayvonlar uchun asosiy yashash muhiti hisoblanadi. Yashash muhiti tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi namlik, harorat, yorug'lik va boshqalar ekologik omillar deb ataladi. Mana bir nechta asosiy yashash joylari va hayvonlarning ularga moslashish xususiyatlari bor. Umurtqasizlar ba'zi cho'kindi jinslarning tarkibini tashkil etadi (mas, ohaktoshning tarkibi deyarli o'lib bitgan foraminifera, korallar, mshankalar va boshqa skeletidan iborat). Ko'pchilik Umurtqasizlar yoki ularning mahsuloti odam va chorva mollari, parrandalar, baliqlar uchun oziq (mas, asal, qisqichbaqasimonlar va boshqalar). Umurtqasizlar hayotiy mahsuloti texnik xo'jalik maqsadlarda ishlatiladi (mas, asalari mumi, ipak qurti pillasi, mollyuskalar chig'anog'i, marvarid va boshqalar), shuningdek, Umurtqasizlar dan qishloq xo'jaligida ekinlar va hayvonlar zararkunandalariga biologik qarshi kurashda, cho'kindi jinslar yoshini aniklashda xam foydalaniladi. Foydali Umurtqasizlar bilan birga, qishloq xo'jaligi zararkunandalari, yuqumli kasalliklarni tashuvchilar, parazitlik qilib kasallik qo'zg'atuvchilari ham bo'ladi.

Zoologiya va boshqa biologiya fanlari, shuningdek tibbiyot, verterinariya va qishloq xo'jaligi bilan uzviy bog'langan. Zoologiyaning ko'pgina bo'limlari parazitologiya, gidrobiologiya, ekologiya kabi ko'pleks fanlar karkibiga kiradi. Odam va hayvonlarni parazitlarini o'rganish tibbiyot va veterinariya parazitologiyasi uchun juda muhim ahamiyatga ega. Tuproqda yashovchi hayvonlarni o'rganish orqali esa tuproq hosil bo'lishini, unumdorligini bilish imkonini berdi.

Umurtqasiz hayvonlar fani o'z ichga prozoologiya –bir hujayralilar hayvonlarni, gelmitologiya-parazit organizmlarni enimalogiya –hashorotlarni, akaralogiya kanalar o'rganuvchibo'limlarni o'z ichga oldi. Umurtqasizlar fani o'rganish orqali ularni qishloq xo'jaligi ahamiyati va shuning bilan birga zarlarini o'rganishdan iborat. Shuning bilan birga ularni tashqi muhitga moslanishdagi bir qancha ijobiy va salbi o'zgarishlarni ta'sirinio'rganishdan iborat. Umurtqasiz hayvonlarning muhitga moslashishi ya'ni himoya ragi, ogohlanturuvchi rang, maskirovka, mimikriya hodisalari uchrashi qishloq xo'jaligi zararkunandalarga qarshi kurashish imkonini berdi

Umurtqasiz hayvonlar xilma -xilligini asrash va ko'paytirish maqsadida, qishloq xo'jaligi ekinlariga ishlov berishda kimyoviy moddalar orqali kimyoviy ishlov berishni kamaytirish va biologic ishlov berish ularga qarshi kurashishda yirtqich hashoratlar, suvda hamda

quruqlikda yashovchilar, sudralib yuruvchilar, sutemizuvchilar va qushlardan foydalanish umurqasiz hayvonlar genofdini saqlash imkonini berdi.

Har bir tirik organizm tashqi muhitsiz, muhit omilarisiz yashay olmaydi. Tashqi muhit organizmga bevosita va bilvosita ta'sir etadi. Tashqi muhitning bevosita ta'siri bu bir organizm boshqa organizmni iste'mol qilishi yoki ikki organizm o'rtasida yashash joyi, ozuqasi, yohut jinsi jihatidan farqlar ularni tur ichida turlar orasida va anorganik tabiat uchun tashqi kurashga olib keldi.

References:

Используемая литература: Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bogdanov S.P. O'zbekiston hayvonlari. -T: O'qituvchi, 1983.
2. Dubovskiy G.K.Ummatov A.M. Zoologiyadan o'quv qo'llanma. T: O'qituvchi, 1991.
3. Kuznetsov B.A.Chernov A.Z., Katanova L.N. Kurs zoologii. -M., «Agropromizdat», 1989.
4. Muxammadiyev A.M. Umurtqasiz hayvonlar zoologiyasi. -T:O'qituvchi, 1976.
5. O.Mavlonov, SH.Xurramov „Umurtqasizlar zoologiyasi” Toshkent. „Mehnat” 2010.
6. O.Mavlonov „Zoologiya”. Toshkent-2013
7. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.